

FARZAND KELAJAGIGA BEFARQ BO'LMANG!

Хасанова Мухаббат Хасановна

Тошкен шахри

Чилонзор туманидаги 200-ИДУМ нинг психологи

ANNOTATSIYA

Farzand - bu Olloh bergen eng ulug` ne`mat. Har bir oila quvonchining sababchisi, yurtimiz kelajagi ulardir. Farzandlarimiz bizdan-da bilimli, baxtli bo`lishi uchun astoydil harakat qilishimiz kerak.Prezidentimiz o`z so`zida "Maktab, maktab va yana maktab. Maktabni rivojlantirsak, hamma soha bo`yicha rivojlanish bo`ladi, men bunga ishonaman" deb ishonch bildirdi.

Kalit so`zi:tarbiya,o`qituvchi bilan muloqot,muloqot,dars nazorati.

Shuning uchun ham yurtboshimiz farzandlarimiz kelajagi uchun juda ko`p imkoniyatlar yaratmoqda. Ta`lim sohasi uchun yangidan yangi imkoniyat yo`llarini ochmoqda. Yoshlar bunday imkoniyatlardan oqilona foydalana olsa bas.

Shu onda meni bir savol qiynaydi. Farzand-larimizni bilimli bo`lishi uchun faqatgina ustozlar ma`sulmi? Nima deb o`ylaysiz? To`g`ri, o`qituvchi bilim berishga, ularni to`g`ri yo`lga solishga astoydil harakat qiladi. O`quvchilar maktabga ilk bor qadam qo`ygan kunidan ustozlar ularga bor mehrini beradi. Hattoki, o`z farzandidek erkalab suyadi, qalb qurini beradi.

Hozirgi kunda farzandlarimning kelajagi yuksalishi uchun faqat o`qituvchilar emas, balki mahalla, ota-onalari ham-korligida ish olib borishlari lozim. Ota- onalar farzandlarimizni uy vazifalariga yordam berishi kerak deb o`ylayman. Ularni o`qishlarini muntazam nazorat qilishlari lozim. Shunday ota-onalar yo`q emas bor albatta, farzandi uchun vaqt ajratadi, o`qishini muntazam nazorat qiladi. O`qituvchilar bilan muntazam hamkorlikda ish olib botadi.

Lekin afsuski shunday ota-onalarimiz ham borki farzandi o`qishiga mutlaqo e`tiborsiz. Darslarini nazorat qilmaydi, uy vazifalariga yordamlashmaydi. Men o`z tajribamda bunday achinarli holatlarni ko`rib hayron qolaman. Nahotki, ota-onalar o`z farzandi kelajagi uchun shunchalar befarq bo`lsa?

Hozirgi kunda ham ota-onalar yig`ilishlariga kelmay-digan, ochiq darslarga qatnashmaydigan ota- onalar ko`p uchraydi. O`quvchining bilimi past bo`lsa, yaxshi o`qimasa, xulqi yomon tomonga o`zgarsa darrov o`qituvchini ayblashadi. Lekin uyda o`z farzandlarini o`qishiga e`tibor bermasligini o`ylamaydilar.Aslida ota-onalari e`tiborida bo`lgan bolalar mehrli va mehnatsevar bo`lib ulg`ayishadi.

Shuning uchun ham farzandlarimizning ota-onalari bag`rida ko`proq bo`lishi uchun boshlan-g`ich ta`lim haftasiga olti kun emas , besh kun qilib belgilandi. Hozirgi kunda maktablarda boshlang`ich sinf o`quvchilari besh kun o`qitilmoqda. Qolgan ikki kun ya`ni shanba yakshanba kunlari oila davrasida bo`lishadi.

Shunday ekan, o`qituvchi va ota-onalar doim hamkorlikda ish olib borsa, farzandlar bilimi, tarbiyasiga e`tibor qaratса kelajakda albatta yuksak natijalarga erishiladi.

Men ota-onalardan shuni iltimos qillardim-ki, farzandlaringizning o`qishiga befarq bo`lmang. Ularni bilimli bo`lishi uchun qo`liga kitob bering. Agar shunday qilsangiz o`qituvchi va o`quvchiga yordam bergen bo`lasiz.

Keling, aziz ota- onalar mакtab bilan, ya`ni farzandlaringizning ustozlati bilan doimo hamkorlikda, birgalikda harakat qiling, ularga e`tiborsiz bo`lmang.

Farandlarimiz- bizning, Vatanimizning kelajagidir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. X.I.Ibragimov, U.A.Yuldashev "Pedagogik psixologiya " Toshkent 2009
2. Hasanboeva O. "Oila pedagogikasi " "Aloqachi " nashiryoti 2007